QO‘QON DAVLAT PEDAGOGIKA INSTITUTI ILMIY XABARLARI
(2026-yil 10-son)
PEDAGOGIKA
PEDAGOGY
https://doi.org/10.70728/c.series.ped.v08.i10.212

BO‘LG‘USI GEOGRAFIYA O‘QITUVCHILARIDA GEOGRAFIK MADANIYATNI SHAKLLANTIRISH METODLARI VA VOSITALARI

Matsaidova Sayyora Xudayberganovna
Geografiya kafedrasi prof v.b.
Abu Rayhon Beruniy nomidagi Urganch davlat universiteti
matsaidovasayyora@gmail.com
https://orcid.org/0009-0002-4461-6176

Annotatsiya. Ushbu maqolada bo‘lg‘usi geografiya o‘qituvchilarida geografik madaniyatni shakllantirishning metodlari va vositalari asoslanadi. Tadqiqot kompetensiyaviy va faoliyatga yo‘naltirilgan yondashuvga tayangan holda aralash metodologiyada olib borildi. Natijalar integrativ metodlar, geoma’lumotlar va dala-amaliyot birligi eng barqaror o‘zgarishlarni ta’minlashini ko‘rsatdi. Ilmiy hissa metodik model va tanlov mezonlarida ifodalandi.

Kalit so‘zlar: Geografik madaniyat, bo‘lg‘usi o‘qituvchi, kompetensiya, geoma’lumotlar, dala-amaliyot, metodik model, integrativ yondashuv

Annotatsiya. В статье обоснованы методы и средства формирования географической культуры у будущих учителей географии. Исследование выполнено в смешанной методологии на основе компетентностного и деятельностного подходов. Результаты показывают, что интегративные методы, геоданные и единство полевой практики обеспечивают наиболее устойчивые изменения. Научный вклад представлен методической моделью и критериями отбора средств обучения.

Ключевые слова: Географическая культура, будущий учитель, компетенции, геоданные, полевая практика, методическая модель, интегративный подход

Annotation. The article substantiates methods and tools for developing geographic culture in pre-service geography teachers. A mixed-method design grounded in competency-based and activity-oriented approaches was applied. Findings indicate that integrative teaching methods, geospatial data use, and the unity of fieldwork and classroom practice produce the most stable improvements. The contribution is a methodological model and criteria for selecting instructional tools.

Keywords: Geographic culture, pre-service teacher, competence, geospatial data, fieldwork, methodological model, integrative approach

Kirish

Geografiya ta’limi bugungi kunda nafaqat tabiiy va ijtimoiy jarayonlar haqidagi bilimlarni uzatish, balki insonning makon bilan munosabatini ilmiy asosda anglash, dalillarga tayangan holda qaror qabul qilish, hududiy tafakkur va mas’uliyatli amaliy xulqni shakllantirishni ham ko‘zda tutadi. Shu ma’noda “geografik madaniyat” tushunchasi bo‘lg‘usi geografiya o‘qituvchisining kasbiy tayyorgarligida markaziy o‘rin egallaydi: u geografik tasavvur, kartografik savodxonlik, geoma’lumotlar bilan ishlash, dala kuzatuvini tashkil etish, hududiy identifikatsiya va tabiat hamda xo‘jalik jarayonlarini tizimli tahlil qilish kabi tarkibiy jihatlarni yagona kompetensial maydonga birlashtiradi [1]. Xalqaro didaktik tendensiyalar geografiya o‘qituvchisidan fanlararo integratsiya, geoinformatsion texnologiyalarni maqsadga muvofiq qo‘llash va real hududiy muammolar bilan ishlash orqali o‘quvchining hududiy fikrlashini rivojlantirishni talab etadi [2]. Milliy ta’lim kontekstida esa bu talablar o‘qituvchi tayyorlash dasturlarining mazmuni, amaliyotga yo‘naltirilganligi va baholash tizimi bilan uzviy bog‘liq bo‘lib, bo‘lg‘usi pedagogning geografik madaniyatini shakllantirish masalasi metodik jihatdan qayta ko‘rib chiqilishini taqozo etadi [3].

Mavjud ilmiy adabiyotlarda geografik ta’limning maqsadlari, kartografik ko‘nikmalar, dala-amaliyot va o‘quv jarayonini texnologiyalashtirish masalalari turli ko’rinishlarda yoritilgan. Biroq, bo‘lg‘usi geografiya o‘qituvchisining geografik madaniyatini aynan metodlar va vositalar tizimi sifatida loyihalash, ya’ni o‘qitish metodlari, ta’lim vositalari, o‘quv topshiriqlari, amaliyot shakllari va baholash mezonlari o‘rtasidagi muvofiqlikni yagona modelda ko‘rsatish ko‘p hollarda fragmentar shaklda uchraydi [4]. Ayniqsa, geoma’lumotlar bilan ishlashning didaktik ssenariylari, dala-amaliyotning kompetensiyaviy natijalarga xizmat qilishi, kartografik va statistik manbalarni integratsiyalashgan tahlilga yo‘naltirish bo‘yicha metodik asoslar yetarli darajada tizimlashtirilmaganligi tadqiqot muammosini belgilaydi. Shuningdek, o‘qituvchi tayyorlash jarayonida “vosita ko‘pligi” muammosi mavjud: raqamli atlaslar, ochiq geoma’lumotlar, masofaviy kuzatuv tasvirlari, ta’lim platformalari va klassik kartografik resurslar ko‘paygan sari ularni tanlash mezonlari va didaktik maqsadga moslashtirish talabi kuchayadi. Demak, ilmiy bo‘shliq geografik madaniyatni shakllantirishning metodik modelini vositalar tanlovi va baholash indikatorlari bilan birga asoslash zarurati bilan izohlanadi [5].

Maqsad bo‘lg‘usi geografiya o‘qituvchilarida geografik madaniyatni shakllantirish metodlari va vositalarini tizimlashtirish, ularning samaradorligini aralash metodologiya asosida baholash hamda amaliyotga tatbiq etish uchun metodik model va tanlov mezonlarini taklif etishdan iborat [6]. Ushbu maqsad quyidagi vazifalar orqali ochib beriladi: geografik madaniyatning kasbiy-pedagogik mazmunini komponentlar kesimida aniqlashtirish; metodlar va vositalar tizimini integrativ model sifatida asoslash; o‘quv jarayonida qo‘llashning empirik natijalarini tavsiflash; metodik yechimlarning nazariy va amaliy implikatsiyalarini muhokama qilish [7].

Metod: Tadqiqot metodologik jihatdan kompetensiyaviy yondashuv, faoliyatga yo‘naltirilgan didaktika hamda konstruktivistik o‘qitish g‘oyalariga tayandi. Bunda geografik madaniyat bilim va ko‘nikmalarning yig‘indisi emas, balki professional vazifalarni makoniy

ma’lumotlar, hududiy tahlil va dalillarga asoslangan muloqot orqali hal etishga tayyorlik sifatida talqin qilindi. Nazariy bosqichda “geografik madaniyat” tushunchasining didaktik interpretatsiyasi, uning komponentlari va indikatorlari kontent-tahlil hamda taqqoshlash usullari yordamida aniqlashtirildi. Shu jarayonda xalqaro geografiya ta’limi yo‘nalishidagi yondashuvlar, hamda mahalliy metodik maktab qarashlari o‘rtasidagi uyg‘unlik va farqlar tahlil qilindi. Ushbu nazariy asos keyingi empirik bosqichda metodlar va vositalarni tanlash hamda ularning o‘zaro muvofiqligini baholash uchun konseptual “ramka” vazifasini bajardi.

Empirik qism aralash metodologiya asosida, ya’ni miqdoriy va sifat yondashuvlarini birlashtirgan holda qurildi. Miqdoriy yo‘nalishda diagnostik topshiriqlar to‘plami, situatsion-pedagogik keyslar va kartografik savodxonlikni tekshiruvchi amaliy ishlar orqali bo‘lg‘usi o‘qituvchilarning dastlabki va yakuniy holati baholandi; natijalarni talqin etishda darajaviy tasnif va dinamik o‘zgarishlarni ko‘rsatishga yo‘naltirilgan tahliliy umumlashtirish qo‘llanildi. Sifat yo‘nalishida esa auditoriya mashg‘ulotlari va dala-amaliyot jarayonidagi kuzatuvlar, talabalarning reflektiv yozuvlari hamda metodik ishlanmalari mazmuni tahlil qilindi. Bunday kombinatsiya geografik madaniyat kabi murakkab konstruktning “faqat test” yoki “faqat kuzatuv” orqali cheklangan o‘lchovini bartaraf etishga xizmat qiladi, chunki unda motivatsion-aksiologik qatlam, kommunikativ-amaliy tajriba va texnologik savodxonlik bir vaqtning o‘zida namoyon bo‘ladi.

Metodik tajribada o‘quv jarayoniga integratsiyalangan holda tashkil etildi va unda metodlar hamda vositalarning “bir-birini to‘ldirish” tamoyili asosiy mezon bo‘ldi. Metodlar sifatida muammoli o‘qitish, loyiha metodi, geoma’lumotlar asosidagi amaliy tahlil, kartografik interpretatsiya va dala-amaliyotga yo‘naltirilgan topshiriqlar tizimi tanlandi; vositalar blokida esa bosma va raqamli xaritalar, tematik atlaslar, ochiq geoma’lumotlar qatlamlari, masofaviy kuzatuv tasvirlari, mobil geolokatsiya ilovalari, mahalliy statistik ma’lumotlar va o‘quv laboratoriya jihozlari uyg‘unlashtirildi. Ushbu tanlov, bir tomondan, bo‘lg‘usi o‘qituvchining “klassik” kartografik savodxonligini saqlab qolish, ikkinchi tomondan, zamonaviy geoinformatsion madaniyatni shakllantirish zaruratidan kelib chiqdi. Metodlar va vositalarning mosligini ta’minlash uchun har bir modul doirasida maqsad, kutiladigan natija, topshiriq formati va baholash indikatorlari o‘zaro muvofiqlashtirildi; bu esa natijalarni keyinchalik tizimli taqdim etish imkonini berdi.

Natija: Tadqiqot natijalari geografik madaniyatni shakllantirishda “metodlar yig‘indisi” emas, balki metodlar va vositalarning maqsadga yo‘naltirilgan tizimi hal qiluvchi ahamiyatga ega ekanini ko‘rsatdi. Birinchi natija sifatida geografik madaniyatning bo‘lg‘usi o‘qituvchi uchun operatsion tuzilmasi aniqlashtirildi: kognitiv-kommunikativ komponent geografik terminologiya va ilmiy izoh berish madaniyatini, kartografik-axborot komponent xarita va geoma’lumotlarni o‘qish hamda yaratish ko‘nikmalarini, analitik-prognostik komponent hududiy tizimlarni sabab-oqibat bog‘lanishlarida tahlil qilishni, amaliy-aksiologik komponent esa dala kuzatuvi, ekologik ehtiyotkorlik va hududiy mas’uliyatni pedagogik vazifalar bilan bog‘lab namoyon etishni ifodaladi. Bu tuzilma metodik loyihalashda indikatorlar va baholash mezonlarini aniqlashtirishga xizmat qildi hamda o‘quv topshiriqlari dizaynini “faqat bilim”dan “kasbiy vazifa”ga yo‘naltirish imkonini berdi [8].

Ikkinchi natija metodlar blokining samaradorligi bo‘yicha olindi: muammoli o‘qitish va keys asosidagi tahlil talabalarning geografik tushunchalarni real vaziyatga ko‘chirish qobiliyatini sezilarli kuchaytirdi, biroq u kartografik-axborot komponenti bilan bog‘lanmaganda izohlar umumiy qolishga moyil bo‘ldi. Shu sababli muammoli vaziyatlar xarita, masofaviy kuzatuv tasviri yoki statistik ma’lumotlar bilan birlashtirilganda, talabalarning dalil keltirish madaniyati, hududiy argumentatsiya va xulosalash aniqligi barqarorroq shakllandi [9]. Loyiha metodida esa eng muhim o‘zgarish metodik fikrlashda kuzatildi: talaba loyihani nafaqat “mavzu bo‘yicha material”, balki o‘quvchi bajaradigan amaliy faoliyatlar ketma-ketligi sifatida ko‘ra boshladi, ya’ni bo‘lajak o‘qituvchining didaktik dizayn kompetensiyasi geografik mazmun bilan integratsiyalashdi.

Uchinchi natija vositalar blokining tanlov mezonlariga taalluqli bo‘ldi. Tajriba shuni ko‘rsatdiki, geoma’lumotlar va raqamli xaritalardan foydalanish o‘z-o‘zicha geografik madaniyatni kafolatlamaydi; aksincha, vositaning “ochiqligi” va “texnik qulayligi” talabaning maqsadni aniq qo‘ymagan holatida axborotning yuzaki ko‘chirilishiga olib kelishi mumkin [10]. Shu bois vositalarni tanlashda uchta mezon ajratildi: didaktik shaffoflik, ya’ni vosita topshiriq maqsadini ochib berishi; tekshiriluvchanlik, ya’ni natijani baholash mumkinligi; hududiy relevaнтlik, ya’ni ma’lumotlar o‘rganilayotgan hudud va mavzuga mazmunan mos kelishi. Mazkur mezonlar asosida tuzilgan topshiriqlar talabalarning axborotni tanlash va manbalarni solishtirish madaniyatini mustahkamladi, bu esa geografik madaniyatning axborot savodxonligi qatlamini kuchaytirdi.

To‘rtinchi natija dala-amaliyot bilan bog‘liq bo‘lib, u geografik madaniyatning “barqaror” shakllanishida eng kuchli omil sifatida namoyon bo‘ldi. Dala kuzatuvi auditoriya mashg‘ulotlaridagi kartografik tahlil bilan uzviy bog‘langanda, talabalarda makoniy tasavvur va lokal obyektlarni umumiy geografik qonuniyatlar bilan bog‘lash qobiliyati kuchaydi [11]. Eng muhim o‘zgarish shundaki, talabalar kuzatuvni “ko‘rish” sifatida emas, balki o‘lchash, qayd etish, taqqoslash va xulosa chiqarishga yo‘naltirilgan ilmiy-amaliy faoliyat sifatida tashkil eta boshladi; bu esa kelgusida maktab sharoitida mini-dala ishlarini rejalashtirishga tayyorgarlikni oshirdi. Dala-amaliyot natijalarini raqamli xarita yoki tematik sxema ko‘rinishida taqdim etish talabalarning kartografik kommunikatsiya madaniyatini ham mustahkamladi.

Beshinchi natija baholash tizimiga taalluqli bo‘lib, geografik madaniyatni baholashda “faqat yakuniy mahsulot”ga qarash yetarli emasligi aniqlandi. Diagnostika jarayonida jarayoniy indikatorlar, ya’ni manbani tanlash mantiqi, xarita bilan ishlashdagi izchillik, dalil keltirish va xulosalashning asoslanganligi kabi ko‘rsatkichlar kiritilganda, talabaning haqiqiy tayyorgarlik darajasi aniqroq ko‘rindi [12]. Natijada metodik model “maqsad topshiriq vosita baholash” zanjiri sifatida ishlaganda, talabalarning kasbiy faoliyatga yaqin kompetensiyalari tizimli ravishda rivojlanishi kuzatildi.

Muhokama: Olingan natijalar geografik madaniyatni shakllantirish muammosini kengroq ilmiy kontekstda qayta talqin qilishga imkon beradi. Xalqaro geografiya ta’limida ta’kidlanadigan asosiy tamoyil shundaki, geografiya o‘quvchini “joy” va “makon”ni tushuntiruvchi konseptual linzalar bilan qurollantiradi, bu esa dalillarga asoslangan hududiy qarorlar qabul qilishga tayyorlaydi. Tadqiqotimizda metodlar va vositalar tizimi aynan shu

konseptual linzalarning pedagogik ekvivalenti sifatida namoyon bo‘ldi: muammoli vaziyatni geoma’lumotlar bilan bog‘lash talabaning “hududiy dalillash” kompetensiyasini kuchaytirgani, xalqaro yondashuvlarda ilgari surilgan inquiry asosidagi o‘qitish g‘oyasini amaliy jihatdan qo‘llab-quvvatlaydi. Biroq bizning natijalar inquiry faqat savol berish bilan cheklanmasligi, balki kartografik va statistik manbalar bilan ishlash madaniyati bilan mustahkamlanishi kerakligini ko‘rsatadi; bu holat geoma’lumotlar ko‘paygan sharoitda ayniqsa muhim [13].

Rossiya olimlari geografik ta’limning kuchli tomoni sifatida kartografik tayyorgarlik va dala-amaliyotning tizimliligi qayd etiladi. Bizning kuzatuvlar dala-amaliyotning “eng kuchli omil” sifatida ajralib chiqishini tasdiqlaydi, biroq shu bilan birga dala ishlarining o‘zi ham maqsad va baholash indikatorlari bilan bog‘lanmasa, taassurot darajasida qolib ketish xavfi borligini ko‘rsatadi. Demak, dala-amaliyotning qiymati nafaqat tashkiliy shakl, balki u qay darajada o‘quv topshiriqlari, kartografik mahsulot va refleksiya bilan integratsiyalashganiga bog‘liq. Bu xulosa dala-amaliyotni “an’anaviy element” sifatida emas, balki kompetensiyaviy natijalarni ishlab chiqaruvchi didaktik mexanizm sifatida ko‘rishni talab etadi.

Mahalliy ilmiy-pedagogik adabiyotlarda kompetensiyaviy yondashuvni oliy ta’limga tatbiq etish, bo‘lajak o‘qituvchini amaliyotga yaqin vazifalar orqali tayyorlash masalalari dolzarb yo‘nalish sifatida qaraladi. Tadqiqotimiz bu yo‘nalishni geografiya metodikasi doirasida konkretlashtirib, geografik madaniyatni baholashning jarayoniy indikatorlari zarurligini asoslaydi. Ya’ni bo‘lg‘usi o‘qituvchi nafaqat “to‘g‘ri javob” berishi, balki geografik dalillashning mantiqiy yo‘lini ko‘rsata olishi, manbani tanlash va uni tekshirish madaniyatini namoyon etishi lozim. Bu yondashuv baholashni o‘qitishdan ajratmaydi, aksincha, baholashning o‘zi metodik ta’sir vositasiga aylanadi [14].

Raqamli vositalar va GIS elementlarini joriy etish borasida xalqaro tadqiqotlar o‘qituvchining geoinformatsion savodxonligi o‘quvchining fazoviy fikrlashiga bevosita ta’sir qilishini ta’kidlaydi. Bizning natijalar buni qo‘llab-quvvatlagan holda, yana bir muhim jihatni ko‘rsatadi: raqamli vositalar “o‘z-o‘zicha innovatsiya” emas, ular didaktik shaffoflik va tekshiriluvchanlik mezonlariga bo‘ysundirilgandagina geografik madaniyatni kuchaytiradi. Aks holda, ma’lumotlar bilan ishlash “texnik ko‘nikma” darajasida qolib, hududiy tahlil va pedagogik interpretatsiyaga yetib bormaydi. Shu sababli vosita tanlovining mezonlarini ishlab chiqish nafaqat amaliy tavsiya, balki metodika nazariyasi uchun ham muhim natija bo‘lib, u o‘qitish vositalari didaktikasini geografiya mazmuni bilan bog‘laydi [15].

Shuningdek, metodlar integratsiyasi bo‘yicha natijalar shuni anglatadiki, geografik madaniyatni shakllantirishda “yagona eng yaxshi metod” konsepsiyasi yetarli emas. Muammoli o‘qitish, loyiha metodi va dala-amaliyotning har biri alohida komponentlarni kuchaytiradi, ammo ularning sinxron qo‘llanishi integrativ kompetensiyani beradi. Bu holat zamonaviy didaktikada ilgari suriladigan blended va integrativ yondashuvlarning geografiya o‘qituvchisi tayyorlashdagi amaliy tasdig‘i sifatida talqin qilinishi mumkin. Natijada metodik modelning ilmiy ahamiyati, bizningcha, aynan integratsiya mexanizmini ko‘rsatganida, ya’ni maqsad, topshiriq, vosita va baholash o‘rtasidagi muvofiqlikni ta’minlaganida namoyon bo‘ladi.

Xulosa: Tadqiqot bo‘lg‘usi geografiya o‘qituvchilarida geografik madaniyatni shakllantirish metodlari va vositalarini tizimli yondashuv asosida asoslab berdi hamda geografik madaniyatning komponentli tuzilmasini kasbiy vazifalar bilan bog‘langan indikatorlar orqali aniqlashtirdi. Eng barqaror natijalar muammoli va loyiha metodlarini geoma’lumotlar bilan ishlash hamda dala-amaliyot bilan integratsiyalash, shuningdek, vositalarni didaktik shaffoflik, tekshiriluvchanlik va hududiy relevantlik mezonlari asosida tanlash orqali ta’minlanishi ko‘rsatildi. Amaliy jihatdan taklif etilgan metodik model o‘quv modullarini “maqsad topshiriq vosita baholash” muvofiqligi asosida loyihalash imkonini beradi va bo‘lajak o‘qituvchining hududiy dalillash hamda kartografik kommunikatsiya madaniyatini kuchaytiradi. Kelgusidagi izlanishlar metodik modelni turli mintaqaviy kontekstlarda sinovdan o‘tkazish, raqamli geoma’lumotlar bilan ishlashda akademik halollik va manbashunoslik kompetensiyalarini chuqurlashtirish hamda baholashning adaptiv vositalarini ishlab chiqishga yo‘naltirilishi maqsadga muvofiq.

ADABIYOTLAR

[1] International Geographical Union Commission on Geographical Education, ‘2016 International Charter on Geographical Education’. 2016. [Online]. Available: https://www.igu-cge.org/publications/2016-charter/

[2] В. П. Максаковский, *Географическая культура*. Москва: Просвещение, 1998.

[3] Н. Н. Николаева, *Методика обучения географии*. Москва: Академия, 2014.

[4] D. Lambert, M. Solem, and S. Tani, *Achieving the Aims of Geography Education: International Perspectives*. London: Routledge, 2015.

[5] UNESCO, *Education for Sustainable Development: A Roadmap*. Paris: UNESCO, 2020. doi: 10.54675/YFRE1448.

[6] Sh. Avazov, B. Abduraxmanov, and S. Matsaidova, *Geografik madaniyat*. Namangan, 2022.

[7] P. A. Longley, M. F. Goodchild, D. J. Maguire, and D. W. Rhind, *Geographic Information Systems and Science*. Hoboken: Wiley, 2015.

[8] S. W. Bednarz, ‘Geographic Information Systems: A Tool to Support Geography and Environmental Education?’, *GeoJournal*, vol. 60, pp. 191–199, 2004, doi: 10.1023/B:GEJO.0000033574.44345.c9.

[9] S. W. Bednarz, G. Acheson, and R. S. Bednarz, *Geography Education Research in the Journal of Geography: A Retrospective*. Washington: National Council for Geographic Education, 2013.

[10] R. S. Bednarz and S. W. Bednarz, ‘Geography Education: The Glass Is Half Full and It’s Getting Fuller’, *The Professional Geographer*, vol. 56, no. 1, pp. 22–27, 2004, doi: 10.1111/j.0033-0124.2004.05601004.x.

[11] R. Jo‘rayev, *Geoinformatsion texnologiyalar va geografiya ta’limi*. Samarqand: Samarqand universiteti nashriyoti, 2020.

[12] National Research Council, *Learning to Think Spatially*. Washington, DC: The National Academies Press, 2006. doi: 10.17226/11019.

[13] I. Karimov, *Pedagogik kompetensiyalarni rivojlantirish nazariyasi va amaliyoti*. Toshkent: Fan va texnologiya, 2018.

[14] J. Biggs and C. Tang, *Teaching for Quality Learning at University*. Maidenhead: Open University Press, 2011.

[15] J. P. Stoltman, J. Lidstone, and G. Kidman, ‘The 2016 International Charter on Geographical Education’, *International Research in Geographical and Environmental Education*, vol. 26, no. 1, pp. 1–2, 2017, doi: 10.1080/10382046.2017.1272849.